

# ONA TILI FANIDAN NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI

Jumayeva Shahlo Uralovna

*Toshkent viloyati Nurafshon shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli  
19 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

## Аннотация

Ushbu dars ishlanmasi umumta'lim maktablarining yettinchi sinf ona tili fanidan bir soatlik "mustahkamlash" darsi uchun tayyorlangan bo'lib, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga mo'ljallangan.

Kalit so'zlari. Yuklama, ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, morfologiya.

## Аннотация

Этот курс рассчитан на одночасовое «усиление» предмета родного языка седьмого класса в общеобразовательных школах и рассчитан на преподавание на основе новых педагогических технологий.

Ключевые слова. Скачать, существительное, прилагательное, число, рифма, форма, глагол, морфология.

## Annotation

This course is designed for one-hour "strengthening" of the seventh grade mother tongue in secondary schools and is designed to teach on the basis of new pedagogical technologies.

Keywords. Download, noun, adjective, number, rhyme, form, verb, morphology.

Dars mavzusi "Mustahkamlash" bo'lib, *darsning ta'limiy maqsadi* o'quvchilarning barcha so'z turkumlari bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligi va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, adabiyot fani bilan darsni bog'lab, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishdir. *Darsning tarbiyaviy maqsadi* o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy tafakkurini rivojlantirish; o'quvchilar orasida do'stona munosabatlarni qaror toptirishdir. *Darsning rivojlantiruvchi maqsadi* o'quvchilarni mustaqil ishlash, malakasini oshirish, yozma savodxonligini o'stirish va ijodiy fikrlashga o'rgatishdir.

Darsning uslubi guruhlarda ishlash, bahs-munozara, yangi pedagogik texnologiya asosida (aqliy hujum, klaster usuli) o'qitish.

*Darsning jihozi* 7-sinf darsligi, didaktik tarqatmalar, test, kompyuter, oq qog'oz va marker.

*Darsning jarayoni quyidagicha:*

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, navbatchi axborotini tinglashdan iborat.
2. O'tilgan mavzuni so'rash. Darslikda berilgan savol va topshiriqlar orqali hamda uyga berilgan mashq asosida uyga vazifa so'raladi.
3. Yangi mavzu bayoni:

*O'qituvchi:* Aziz o'quvchilar, ona tili fanining bir necha bo'limlari bor. Shulardan biri grammatika bo'limi bo'lib, u 2 qismdan iborat.

**1.Morfologiya (so'z turkumlarini o'rganadi).**

**2.Sintaksis (gap bo'laklarini va gapni o'rganadi).**

7-sinfning oxirgi darsida biz morfologiya bo'limini tugatdik.Ya'ni 6-7-sinflarda so'z turkumlarini o'tib bo'ldik. Shuning uchun bugungi darsimizda biz ona tili yig'ilishini o'tkazamiz. Yig'ilishga barcha so'z turkumlarini taklif etdik. Marhamat so'z turkumlari o'z joyingizni egallang.

Yig'ilish raisi: ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi: Jumayeva Shahlo. Kotibasi: sinf sardori: Xasanboyeva Laylo

Kun tartibi:

1. So'z turkumlari axborotini eshitish.
2. Interfaol usullar orqali axborotlarni tahlil etish.

Endi birinchi masala yuzasidan so'z turkumlari birin-ketin axborot beradi.

**Fe'l:** Men shaxs va narsalarning harakat va holatini bildirib, nima qildi? nima bo'ldi? kabi so'roqlarga javob bo'lib kelyapman.

**Ot:** Men shaxs narsa ma'nolarini shuningdek, joy nomlarini bildirib kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'lib kelyapman.

**Sifat:** Men otga bog'lanib, uning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lib kelyapman.

**Son:** Men narsalarning son-sanog'i tartibini bildirib, qancha?, nechta?, necha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lib kelyapman.

**Ravish:** Men harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarni bildirib qanday?, qachon?, qayer?, qancha? so'roqlariga javob bo'lib kelyapman.

**Olmosh:** Men boshqa so'zlar shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llanyapman, ularga ishora qilyapman va so'rog'i bildiriyapman.

**Ko'makchi:** Men ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lashga xizmat qilyapman.

**Bog'lovchi:** Men gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qilyapman.

**Yuklama:** Men so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor ma'nolarini yuklab kelyapman.

**Undov so'zlar:** Men his-hayajon va buyruq-xitobni ifodalab kelyapman.

**Taqlid so'zlar:** Men narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirib kelyapman.

**Modal so'zlar:** Men ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarini bildirib kelyapman.

**Tasdiq-inkor so'zlar:** Men ha, xo'p, mayli, singari tasdiq so'zlarni, yo'q, mutlaqo, singari inkor so'zlarni bildirib kelyapman.

Shu tariqa mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, modal, undov, taqlid so'zlar o'zlari bajarayotgan ishlar haqida ma'lumot beradi.

O'qituvchi: Hozir o'quvchilar 2 guruhga ajralamiz. Men sizlarga shu qog'ozlarni beraman. Siz qog'ozda yozilgan so'zlar asosida qo'llaringizni harakatlantirib, bir-biringizni topib, 2 guruhga bo'linib olasiz. Qog'ozda "Lazgi" hamda "Dutor" so'zlari yozilgan bo'ladi.

Guruhga ajratilgandan keyin o'quvchilarga darslikda berilgan 1-topshiriq bajartiriladi. Sharti quyidagicha:

Gaplarni imlo qoidalariga rioya qilgan holda ko'chiring. Yuklamalarning yozilishiga diqqat qiling.

O'quvchilar doskaga navbatma-navbat chiqadi.

1. *Kimsan akam birpas qarab turdi(-da), indamay chiqib ketdi. (turdi-da)*

2. *Tolibjon kula-kula, xo'p dedim(-ku),-dedi. (dedim-ku)*

3. *Samovar senga yoqdi(-mi) axir? (yoqdimi)*

4. *Biz uni botqoqlikdan chiqolmaydi,deb o'ylagan edik. Chiqibdi(-mi,-a), (chiqibdimi-a?)*

5. *Muzaffar eshikni sharaqlatib ochib, pastga tushdi.*

-*Toshkentda Rasul degan og'aynimning uyini bilasan(-a)(bilasan-a?)*

-*Qaysi Rasul? Anavi kamgap professor(-mi) (professormi?)*

-*O'sha! Mana bu xatni ertalab o'shanga yetkazasan.*

-*Siz(-chi?) (Siz-chi?)*

-*Men bilan ishing bo'masin. Bu yog'i yaqin piyoda ketaman.*

1-topshiriq bajarilgach, guruhlarga berilgan harflar asosida so'zlar hosil qilish topshiriladi. 1-guruh F.A.U.S.T.B 2-guruh D.A.N.M.O.L

Eng ko'p so'z tuzgan guruh rag'batlantiriladi.

Undov soʻzlar	Taqlid soʻzlar	Yuklamalar
Oh,eh,iye,ehhe,voy, beh-beh,kisht,obbo.	Milt-milt,sharaq-shuruq, tiq,dagʻ-dagʻ.	Nahotki, ham, hattoki.

Oʻquvchilarni tez va toʻgʻri fikrlash, hozirjavoblik layoqatini oʻstirish maqsadida “Ha” yoki “Yoʻq” oʻyini oʻtkaziladi. Buning uchun oʻquvchilar oʻqituvchining har bir savoliga “Ha” yoki “Yoʻq” deb javob berishi kerak. Masalan:

– Koʻmakchi mustaqil soʻzmi?

–Yoʻq.

–*Albatta* modal soʻzmi?

–Ha.

–*Nahotki* undov soʻzmi?

–Yoʻq.

–*Kisht* his-hayajon undovimi?

–Yoʻq.

–*Milt-milt* holatga taqlidni bildiradimi?

–Ha.

–*Yoʻq, mutlaqo* inkor soʻzmi?

–Ha.

–*Ha, xoʻp, mayli* taqlid soʻzmi?

–Yoʻq.

Oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini oʻstirish maqsadida darslikdagi 3-topshiriq ogʻzaki bajartiriladi. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga izoh berish, ularning nutqdagi ahamiyati haqida soʻzlash aytiladi. Qur-ey! Qur-ey (buyruq-xitob undovi), Ba-a (taqlid soʻz), gʻuv-v-v-v (taqlid soʻz) Gʻa-gʻa-gʻa (taqlid soʻz) Gʻoq-gʻoq-gʻoq (taqlid soʻz) Duv-duv (taqlid soʻz).

Oʻqituvchi: Endi aqliy hujum usulidan foydalanamiz. Buni ham interfaol oʻyinlardan biri boʻlgan,–“Soatsoz oʻyini” asosida bajaramiz. Guruhlarga 6 tadan savol beriladi. K harfi bilan boshlanib K harfi bilan tugallaydigan soʻzni topish aytiladi. Har bir savol javobi bir soat vaqt hisobida belgilanadi, yaʼni agar guruh 1 ta savolga javob berolmasa, ularning guruhida soat 1 soat orqada qoladi va hokazo.

1-Guruhga savollar:

1. Tuproq qotishmasi? -kesak
2. Uy parrandasi xonasi? -katak

- |   |          |
|---|----------|
| 3. Lozim, darkor turkumiga xos soʻz       | -kerak   |
| 4. Un chiqindisi?                         | -kepak   |
| 5. Yetti jilo?                            | -kamalak |
| 6. Yordam, madad soʻzlarining maʼnodoshi? | -koʻmak  |
- 2-guruhga
- |   |          |
|---|----------|
| 1. Tanlov soʻzining maʼnodoshi?         | -koʻrik  |
| 2. Koʻz himoyachisi?                    | -kiprik  |
| 3. Ariqdan oʻtkazadi?                   | -koʻprik |
| 4. Fazoviy kema?                        | -kosmik  |
| 5. Mittigina soʻzining maʼnodoshi?      | -kichik  |
| 6. Kir yuvganda hosil boʻladigan narsa? | -koʻpik  |

Gʻolib guruh qarsak asosida olqishlanadi.

Oʻqituvchi: Endi “ Siz kimsiz?” oʻyinini oʻtkazamiz. Hozir doskaga ikki oʻquvchi chiqadi. Men ularning boshiga mustaqil soʻz turkumlari yozilgan qalpoq kiydiraman. Siz bu oʻquvchilarga savol berib, kim ekanligini soʻraysiz. Ular esa oʻzining kimligini bilmaydi.

### **1-oʻquvchi – ot turkumi.**

Siz egalik qoʻshimchalarini olasiz – Siz kimsiz?

Siz kelishik qoʻshimchalarini olasiz – Siz kimsiz?

Siz koʻplik qoʻshimchalarini olasiz – Siz kimsiz?

Urgʻu koʻpincha sizning oxirgi boʻgʻiningizga tushadi – Siz kimsiz?

Sizning kichraytirish-erkalash shakllaringiz bor – Siz kimsiz?

Siz shaxs va narsalarning maʼnolarini, shuningdek joy nomlarini bildirib kim?, nima?, qayer? soʻroqlariga javob boʻlib kelasiz – Siz kimsiz?

Siz juft, takroriy va qoʻshma holda qoʻllanasiz – Siz kimsiz?

### **2-oʻquvchi – sifat soʻz turkumi.**

Siz asliy va nisbiysiz turlarga boʻlinasiz? – Siz kimsiz?

Siz sodda, qoʻshma, juft tuzilishga egasiz? – Siz kimsiz?

Sizning oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma darajalaringiz bor – Siz kimsiz?

Siz rang-tus, maza-taʼm, hajm-oʻlchov, xususiyat bildirasiz – Siz kimsiz?

Siz otlashib kelasiz – Siz kimsiz?

Siz qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlib kelasiz – Siz kimsiz?

Oʻquvchilar bu savollardan soʻng oʻzining kimligini bilib oladilar. Agar 1-2-3-savollardan soʻng oʻzining kimligini aytolmasa, savol bergan oʻquvchilar aytishadi.

O'qituvchi: Bilimimizni o'stirish hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun test savollaridan foydalanamiz. Har ikkala guruhga bittadan savol beriladi. Qaysi guruh testni tez va to'g'ri bajarsa, rag'batlantiriladi.

### 1-guruhga test savollari

Men-ku bu haqda o'ylab ko'rdim. Siz-chi? Ushbu gapda yuklamaning qaysi turi ishlatilgan?

- A) Kuchaytiruv-ta'kid, so'roq yuklamalari
- B) So'roq-taajjub yuklamalari
- C) Ayiruv-chegaralov yuklamasi
- D) O'xshatish-qiyoslash yuklamasi

### 2-guruhga test savollari

Xayriyat, shukur modal so'zlari qanday ma'noni anglatadi?

- A) Gumon ma'nosini
- B) Achinish, pushaymonlik ma'nosini
- C) Tasdiq va ishonch ma'nosini
- D) Quvonch ma'nosini

(Birinchi savolning javobi A, ikkinchi savolning javobi D qatori belgilanadi)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar mana yig'ilishimiz ham oxiriga yetdi. yuqoridagilar asosida yig'ilish

### QAROR QILADI:

1. Barcha so'z turkumlari ma'lum bir so'roqlarga javob bo'lib, gap bo'laklari vazifasida kelishi yodimizda qolsin.
2. 4-topshiriq uyga vazifa sifatida bajarilsin. Unda berilgan *lapang-lapang, hoy, aftidan, xullas, qiy-chuv* so'zlar ishtirokida gaplar tuzilsin.
3. Uyga berilgan vazifani bajarishni nazorat qilish ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, yig'ilish raisi Jumayeva Shaxloga yuklatilsin.